

**HARBIY FRAZEOLGIK BIRLIKLARDA LINGVOMADANIY
KODLARNING SEMIOTIK TADQIQI**

Maripova Xurshidaxon Muzaferjonovna

*Gumanitar yo'nalişlar bo'yicha chet tillari kafedrasi o'qituvchisi, Farg'ona davlat
universiteti*

E-mail: hurshidamari@inbox.ru

Tel: +91 113 30 19

Annotatsiya

Maqlada harbiy frazeologik birliklarda "antromorfik", "kvantitativ" hamda "obyektivlik" kabi lingvomadaniy kodlar mavjud bo'lib, moddiy olamning o'ziga xos bahosini ko'rsatgan. Ushbu lingvomadaniy yirik kodlar doirasida uning tarkibiy subkodlari hamda semantik ma'nosi mavjud. Subkodlarning lingvistik va madaniy tahlili asosida frazeologik birliklarda majozan kodlangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar belgilanishi ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar

frazeologik birlklar, lingvomadaniy kodlar, madaniy, harbiy, belgi, obyektlar, subkod, miqdor.

**СЕМИОТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ КОДОВ В
ВОЕННЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ**

Марипова Хуршидахон Музафаржоновна

*Преподаватель кафедры иностранных языков гуманитарного факультета,
Ферганский государственный университет*

E-mail: hurshidamari@inbox.ru

Аннотация

В статье приводятся такие лингвокультурные коды, как «антропоморфный», «количественный» и «объективный» в военных фразеологизмах, которые показали уникальную оценку материального мира. Внутри этих крупных лингвокультурных кодов существуют свои структурные субкоды и семантическое значение. На основе лингвострановедческого анализа субкодов показано, что определяются морально-нравственные ценности, закодированные во фразеологизмах. Ключевые слова: фразеологизмы, лингвокультурные коды, культурные, военные, символы, предметы, субкод, колчество.

**SEMIOTIC STUDY OF LINGUISTIC AND CULTURAL CODES IN MILITARY
PHRASEOLOGICAL UNITS**

Maripova Khurshidakhon Muzafarjonovna

*Teacher of the Department of Foreign Languages in Humanities, Ferghana State University
E-mail: hurshidamari@inbox.ru*

Annotation

The article contains linguistic and cultural codes such as "anthropomorphic", "quantitative" and "objectivity" in military phraseological units, which showed a unique assessment of the material world. Within these large linguistic and cultural codes, there are its structural subcodes and semantic meaning. Based on the linguistic and cultural analysis of the subcodes, it is shown that the moral and moral values encoded in the phraseological units are determined.

Key words: phraseological units, linguistic and cultural codes, cultural, military, symbols, objects, subcode, quantity.

Hayotimizdagi frazeologik birliklarning madaniy mazmuni madaniy kodlar bilan bog'liq. Madaniy kodlar – bu “olam allaqachon madaniy ma'noga ega bo'lgan va shuning uchun frazeologik birlik qiyofasini madaniy tushunish uchun manba materiali bo'lib xizmat qiladigan voqelikdir” [142;13-22]. Masalan, oddiy obyektlar (varaq, qalam, ruchka va boshqalar) madaniy kodni tashkil eta olmaydi, bular ishlov berilmagan obyektlardir. Madaniy kodlar (masalan, tabiat, inson, vaqt va boshqalar) ma'lum bir xususiyatga ega abstraksiya, turli xossalarni, belgilarni va, eng muhimi, shartli belgini birlashtirishi, ayni paytda, ma'lum bir madaniy shaxsning belgisi hamdir.

Lingvomadaniy kodlar doirasiga antropik kod, somatik kod, zoomorfik kod, tabiiy landshaft kabi kodlar kiradi [143:13-22].

Albatta, harbiylarning milliy madaniyatida ham ramzlar va madaniy kodlar alohida ahamiyatga ega. Ular yordamida atrofdagi voqelik obyektlari nomlanadi, ichki va tashqi dunyoni tushunish imkonini beradi.

Tadqiqotimizning ushbu bosqichida biz harbiy soha frazeologiyasining madaniy ma'nolarini, aniqrog'i, ushbu tasvirlar aks ettiradigan voqelikni nemis va o'zbek milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda, aniqlab talqin qilamiz. Biz harbiy frazeologik birliklarni quyidagi lingvomadaniy kodlarga ajratdik.

1. Antropomorfik (antropik)kod;
2. Kvantitativ (miqdoriy) kod;
3. Obyektiv kod.

Ushbu kodlarning har biri kichik kodlarga bo'linadi.

Antropomorfik (antropik) lingvomadaniy kod inson va uning tana qismlari bilan bog'liq bo'lib, ular orqali ifodalangan madaniy ma'nolarga hamda ramziy

funksiyalarga e'tibor qaratiladi. Bu ma'nolar, albatta, nemis va o'zbek tilidagi harbiy sohaning majoziy frazeologik birliklarida o'z ifodasini topadi. Antropik kod doirasida "xalqlar", "tarixiy shaxslarning ismlari", "somatizmlar" va "harbiy qismlar" kabi subkodlar mavjud.

"Xalqlar" doirasidagi subkodda xalqlar va qabilalar stereotipik obrazlar sifatida harakat qilishlari, shuningdek, shaxsni tavsiflash, uning fe'l-atvori va xatti-harakatlari, xususiyatlarini so'z bilan ifodalash uchun ishlatalishi aniqlandi.

Nemis tili jamoasi uchun "die Danaer" (yunonlar) ta'siri madaniy merosdir. Masalan, Es ist ein Donaergeschenk - xiyonat maqsadida qilingan hiyla-nayrang; sovg'a. Das Trojanische Pferd - o'limga olib keladigan makkor sovg'alar. Bu ibora qadimda xiyonatkor yunonlar timsolida ularning Troyani bosib olishi haqidagi qadimgi yunon afsonasi asosida shakllangan. Ma'lumki, Troyani uzoq va muvaffaqiyatsiz qamalidan so'ng yunonlar harbiy hiyla-nayrangga kirishadilar. Ular yog'ochdan ulkan ot yasashadi va troyaliklarga sovg'a qilishadi, yog'och otning ichiga esa askarlarni yashiradilar. Buning natijasida harbiy hiyla bilan Troyani egallab oladilar [156;120].

Kvantitativ lingvomadaniy kod miqdoriy mazmundagi tushunchalar majmuasi (miqdor, son, to'plam, ko'plik va boshqalar) haqidagi g'oyalarni amalga oshiradigan mantiqiy-semantik kategoriadir [194].

Frazeologik materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, madaniy kodlar o'rtaida kuchli chegara yo'q. Lekin miqdor lingvomadaniy kodi doirasida grammatic moslashuvda cheklovlar uchraydi. Masalan, butun armiya, butun boshli qo'shin. O'rganilayotgan til madaniyatida miqdoriy kod harbiy qismlar, qo'shin turlari, harbiy obyektlarning nomlari bo'lib, u quyidagi frazeologik birliklarda namoyon bo'ladi: in hellen Haufen - olomonda, to'dada. Bu ibora odamlarning faqat katta guruhlarini tavsiflash uchun ishlataladi. Kelib chiqishiga ko'ra oldinda joylashgan qo'shin qismidan keyin jangga kiradigan asosiy qo'shin qismi tushunchasini anglatadi.

Obyektiv-lingvomadaniy kod insoniy obyekt muhitining tasvirlarini ifodalaydi va "qurol", qurol aksessuarlari", "harbiy texnika" subkodlarni o'z ichiga oladi:

Obyektiv-lingvomadaniy kod sifatida qilich va pichoq leksemalari yordamida harbiy tafakkurda zo'ravonlik g'oyasi quyidagi iboralarda namoyon bo'ladi: einen Streit mit dem Degen ausfechten (ausmachen) - so'zma-so'z, nizoni qilich kuchi bilan hal qilmoq; mit der Klinge ausfechten (austragen) - so'zma-so'z, pichoq kuchi bilan biron narsani hal qilmoq.

Xullas, frazeologik birliklarda lingvomadaniy yirik kodlar doirasida uning tarkibiy subkodlari hamda semantik ma'nosi mavjud bo'lib, ular lingvistik va madaniy tahlil asosida majozan kodlangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega.

1. Бинович Л.Э., Гришин Н.Н. Немецко-русский фразеологический словарь.- М.: Русский язык, 1975. – 1975.
2. Степанов Е.А. Языковая картина мира военной сферы (лингвокультурологический и терминологический аспекты): Дис. ...канд.филол.наук. – М: 2012. – 197 с.
3. Ха Нгуен Тхань. Отражение национальной культуры во фразеализмах русского и вьетнамского языков: Дис. ...канд.филол.наук.– М: 2016.–13-22 с.
4. Tome T. Dictionary of Modern Slang [Text]- М.: Персей, 1966. - 592 с.